



Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-avgust

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-avgust oylarida 179,0 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 86,9 mln. AQSh dollarini va import 92,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi -5,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 28,6 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 219,3 foizni, kimyo mahsuloti va plastmassa 444,3 foizni, mashina va asbob uskunalar 53,4 xizmatlar eksporti 295,5 foizni, boshqalar 90,6 foizni tashkil qiladi.


Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,2 foizni, mashina va asbob uskunalar 185,0 foizni, rangli metal mahsulotlari 73,6 foizni, qora metal mahsulotlari 33,0 foizni, ish va xizmatlar importi 514,5 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda



2018 yil yanvar-avgust oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda




Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 49,8 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Eron, Islom Respublikasi, Ukraina, Yaponiya, Afg'oniston, Belarus, Qirg'iziston, Litva davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 65,1 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport

Import



Eksport bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukrayina, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 52,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Eron, Turkiya, Yaponiya, Afg'oniston, Vetnam davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 60,5 foizni tashkil qildi.

Import bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 18,1 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Finlandiya, Eron, Avstriya, Litva va Hindiston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 63,2 foizni tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi**